

juftlashda esa $34,2 \pm 7,69$ ($P < 0,001$) $47,3 \pm 8,09$ va $18,5 \pm 6,30$ foiz darajalarida qayd etildi, ya'ni a'lo ifodalanishning pasayib, yaxshi va yetarsiz ifodalanishning ko'payishi aniqlandi. Shunga o'xshash holat kumushsimon qo'chqorlardan foydalanishda ham kuzatilib, rangbaranglikning a'lo ifodalanishi birinchi variant juftlashda $55,8 \pm 6,88$ foiz avlodlarda, ikkinchi variant juftlashda $52,3 \pm 5,38$ foiz avlodlarda, uchinchi variant juftlashda esa $36,6 \pm 7,52$ foiz ($P < 0,001$) avlodlarda qayd etildiki, aniqlangan natijalarni seleksiya ishlarida inobatga olish samarali hisoblanadi.

Xulosa. Olmos rangbarangligidagi qo'ylarni gomogen juftlashda avlodlarda rangbaranglikning a'lo ifodalanish darajasini $61,8 \pm 5,89$ foizga, o'rta ifodalanish darajasini $29,4 \pm 5,52$ foizga yetkazish, yetarsiz ifodalanish darajasini sezilarli (8,8 foizgacha) tushirish imkoni yaratiladi. Maqsadli juftlash ishlarini olib borishning sur qo'ylarda muhim seleksion ko'rsatkich hisoblangan a'lo rang tekisligi salohiyatining avlodlarda sezilarli yuqori darajada namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaziyeu A. Qorako'l qo'ylarini samarali seleksiyalashning ekologik va genetik asoslari. Q.x.f.d. (DSc) doktorligiga yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand 2021 y. 225 bet.

2. Boltayev A., Raximov A., Mamatov B. Buxoro sur qorako'l qo'ylarining qovurg'agulli va yasigulli yuqori mahsuldor seleksion suruvlarini yaratish usullari. "Cho'l-yaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. (2009 y. 20-21 avgust. Samarqand sh.)- Samarqand, 2009, 44-48 bet.

3. Ибрагимов А.А., Болтаев А.Ж. Гетерогенное спаривание овец по окрасом. Сельское хозяйство Узбекистана. 1993 г. 18-19 с.

4. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilar baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. 2021 y.

UO'K: 636.32/38/082/11

OLMOS VA KUMUSHSIMON RANGBARANGLIKDAGI SUR QORAKO'L QO'ZILARIDA GULLARNING JOYLASHISH RASMI VA MUSTAHKAMLIGI

M.X.Turanov-q.x.f.d, ilmiy xodim

A.Boltaev-ilmiy xodim

M.Yarmanov- tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'zilarida gullarning joylashish rasmi va mustahkamligi, gullarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: gul, olmos, kumushsimon, qovurg'asimon, yassi, genotip

Annotation. The article presents data on the study of the density and pattern of curls in Karakul lambs of diamond and silver sur colors.

Key words. Curl, diamond silver, ribbed, flat, genotype.

Kirish. Ma'lumki, qorako'l qo'ylarida guv va rang ko'rsatkichlari muhim hisoblanadi hamda bu ko'rsatkichlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Teri yuzasida gul rasmlarining joylashishiga qarab uning gul tipi hamda teri sifatiga baho berish mumkin.

Qo'ylarni maqsadli seleksiyalashda avlodlar terisi sathida mustahkam gullar salmog'ini juftlash variantlariga bog'liq holda sezilarli ortishi hamda yetarsiz mustahkam va bo'sh gullar salmog'i kamayadi. Keltirilgan uch xil juftlash varianlarida o'ta mustahkam va mustahkam gullar salmog'i 84,3-89,2 foizga yetgan bo'lsa, jun-tola qoplami pigmentatsiyasining kuchayishi sharoitida bu ko'rsatkichni $93,5 \pm 2,09$ foizga yetkazish imkoniyati mavjudligini aniqlangan [1].

Tadqiqotlarda gullarning mustahkamligi, joylashish rasmi va teri sathida qimmatli gullar salmog'i bo'yicha uzun gulli qo'ylar avlodlarida ma'lum darajada ustunlik bo'lishi aniqlangan [2].

Tadqiqot maqsadi. Turli rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'zilarida gullarning joylashish rasmi va mustahkamligini o'rganish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda turli rangbaranglikdagi qo'ylar, ulardan olingan avlodlarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqalarning "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" [3] va biometrik tahlil qilishda "Руководство по биометрии для зоотехников" usullaridan foydalanildi [4].

Tadqiqot natijalari. Avlodlarda gullarning joylashish rasmi. Ushbu muhim seleksion belgi qo'ylarning naslini, qorako'l terilarining qimmatlilikini baholashda alohida o'rin tutadi. Uning teri sathidagi aniqligi, parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri, aralash va boshqa shakllariga qarab nafaqat qo'ylar va qorako'l terilari qimmatlilikini baholanadi, balkim qo'ylarning zot strukturasida mavjud gul tiplari bo'yicha qaysi genotipga mansubligini aniqlash mumkin.

Ko'pchilik tadqiqotlarda har bir gul tipiga gullarning ma'lum joylashish rasmining xosligi, bunda yarim doira qalamgul tipi asosan gullarning parallel-konsentrik, qovurg'asimon va yassi tiplari parallel-to'g'ri, o'sikgul tipi esa aralash joylashish rasmi bilan xarakterlanishi ta'kidlangan.

Ta'kidlash lozimki, qorako'l qo'ylarining belgi va xususiyatlari bir-biriga bog'liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, gullar rasmi rang va rangbarangliklarga ham bog'liq holda ma'lum darajadagi o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Sur rangi va rangbarangliklarida jun tolalarining qora rangga nisbatan biroz uzunroq bo'lishi gullar rasmining aniq bir ko'rinish hosil qilishini biroz susaytirishini taxmin qilish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Qayd etilganlar nuqtai-nazaridan tadqiqotlar davomida turli rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'ylarini ushbu ko'rsatkich bo'yicha gomogen va geterogen juftlashdan olingan avlodlarda gul rasmlarining namoyon bo'lish darajalari o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Avlodlarda gul rasmlarining namoyon bo'lishi

Juftlash varianti		n	Avlodlar gul rasmi, % ($X \pm S_x$)			
♂	♀		PK	PT	Aralash	Boshqalar
Olmos	Olmos	68	55,9±6,02	20,6±4,90	16,1±4,46	7,4±3,17
	Kumushsimon	49	46,9±7,13	18,4±5,54	28,6±6,45	6,1±3,42
	Tillasimon	38	57,9±8,01	15,8±5,92	18,4±6,29	7,9±4,38
Kumushsimon	Olmos	52	51,9±6,93	23,1±5,84	17,3±5,25	7,7±3,70
	Kumushsimon	86	51,2±5,39	19,8±4,30	20,1±4,32	8,1±2,94
	Tillasimon	41	56,1±7,75	17,1±5,88	17,0±5,87	9,8±4,64

Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda qo'ylarning bir xil, ya'ni yarim doira qalamgul tipiga mansub bo'lsa, juftlash variantlari bo'yicha gul rasmlarining avlodlarda namoyon bo'lishida ma'lum ustunlik va ortda qolishlar aniqlandi. Ushbu holatda parallel-konsentrik rasmi avlodlar salmog'ining yetarli bo'lishi bilan birga, eng yuqori natija "olmos x olmos" (55,9±6,02%), "olmos x tillasimon" (57,9±8,01%) va "kumushsimon x tillasimon" (56,1±7,75%) juftlash variantlarida qayd etildi. Olmos rangbaranglikdagi ota-onalar ishtirok etgan juftlash variantlarida esa qovurg'asimon va yassi tipli avlodlar chiqimining nisbatan yuqoriligi hisobiga parallel-to'g'ri gul rasmiga ega qo'zilar chiqimining nisbatan yuqori chiqimi (20,6±4,90 va 23,1±5,84 foiz), "olmos x kumushsimon" va "kumushsimon" juftlash variantlarida esa aralash rasmi qo'zilar salmog'ining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari (28,6±6,45 va 20,1±4,32 foiz) qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida gullarning mustahkamligi ham o'rganildi. Gullarning mustahkamligi muhim seleksion ko'rsatkich hisoblanib, mustahkam gullar qo'ylarning nasliy qimmatlilikini belgilaydi. Shu bilan bir qatorda ushbu ko'rsatkichning yuqori darajasi qorako'l terilarining xizmat davrini uzaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu ko'rsatkichning yuqori darajasi qo'ylarning rangi va gul tipi, jun qoplarning quyuqligi, turli xil jun tolalarining nisbati, uzunligi, yo'g'on yoki ingichkaligi, gullarning strukturasi, tashkiliy jihatdan ushbu ko'rsatkich bo'yicha tanlash, juftlash ishlarini olib borish va boshqa faktorlarga bog'liq.

Shu nuqtai nazaridan tadqiqotlar davomida sur qo'ylarini rangbarangliklar bo'yicha juftlash sharoitida olingan avlodlarda ko'rsatkichning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi. Ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari gullarning mustahkamligi seleksiya jarayonida ishtirok etayotgan qo'ylarning rangbarangligiga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Bunda mustahkam gulli avlodlar salmog'ining eng yuqori ko'rsatkichi "olmos x olmos" juftlash variantida kuzatilib, ular ushbu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi variantdan 10,9 (1,2 baravar), uchinchi variantdan 6,9% (1,1 baravar), to'rtinchi variantdan 8,6% (1,12 baravar), beshinchi variantdan 12,8% (1,2 baravar), oltinchi variantdan 13,6% (1,2 baravar) ustunlik qilgani aniqlandi.

2-jadval

Avlodlarda gullarning mustahkamligi, % ($\bar{X} \pm S_x$)

Juftlash varianti		n	Gullar mustahkamligi		
			Mustahkam	Yetarsiz	Bo'sh
♂	♀				
Olmos	Olmos	68	72,1±5,44	16,1±4,46	11,8±3,91
	Kumushsimon	49	61,2±6,96	25,5±6,23	14,3±5,00
	Tillasimon	38	65,8±7,70	21,0±6,61	13,2±5,49
Kumushsimon	Olmos	52	63,5±6,68	25,0±6,00	11,5±4,42
	Kumushsimon	86	59,3±5,30	26,7±4,77	14,0±3,74
	Tillasimon	41	58,5±7,70	26,9±6,93	14,6±5,51

Xulosa. Ta'kidlash lozimki, gul rasmlarining namoyon bo'lishida gul shakllari hamda uzunligini inobatga olgan holda seleksiya ishlarini yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yetarsiz va bo'sh mustahkamlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham "olmos x olmos" variantining ustunligi ko'zga tashlanadi. Bunda ularning avlodlarida boshqa variantlarga nisbatan gul mustahkamligidagi avlodlar salmog'i 4,9-10,8 foizga, bo'sh mustahkamlikdagi avlodlar salmog'i esa 1,4-2,2 foizga kam uchrashi aniqlandiki, bu seleksiya jarayonida inobatga olinishi lozim bo'lgan muhim holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rizayeva D. Qizilqum sharoitida urchitiluvchi qora rangli qorako'l qo'ylarida ba'zi seleksion belgilarning o'zaro bog'liqligi. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali, № 2-3 2018 y. 31-33 b.

2. Mamatov B.S., Gaziyeu A. Qo'ylar gul ko'rsatkichlari bilan avlodlar seleksion belgilarining korrelyatsion bog'liqligi. "Cho'l-yaylov chorvachiligining rivojlanish istiqbollari mavzusidagi QCHEITining 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari (2020 yil 10-11 dekabr)- Samarqand, 2020. 60-63 bet.

3. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. 2021 y. 15 b.

4. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. 256 стр